
TA'LIM TIZIMIDA YOSHI ULUG' VA YOSH KADRLAR O'RTASIDAGI UZVIYLIK VA TAJRIBA ALMASHINUVI

Abdullayeva Charos Nurilla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

charosabdullayeva305@gmail.com

Annotatsiya. *Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi ta'lism tizimi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lism sohasida kadrlar salohiyatini oshirishda yoshi ulug' pedagoglar va yangi avlod yosh kadrlar o'rtasidagi hamkorlik, tajriba almashinushi muhim o'rinn tutadi. Bu uzviylik avlodlar davomini ta'minlab, sifatli bilim berish tizimini shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *Bilim, tajriba, yosh kadrlar, pedagoglar, savodxonlik, yoshlar, insoniy, qadryatlar, ustoz, texnologiyalari.*

Vatanimiz yoshlarga juda kop e'tibor qaratmoqda. Ilm olishga, yuksalishga, bilimli bolishga sharoitlar yaratilmoqda. Kundan kunga yoshlarimizning orasida ilmga bolgan qiziqishlar ortib bormoqda. Ko'p yillik mehnat tajribasiga ega bolgan ustozlar nafaqat bilim, balki insoniy qadryatlar, axloq, pedagogik mahorat bobida ham yosh avlod ibratdir. Ularining amaliy tajribasi ta'lism jarayonini yanada samarali tashkil etishda asosiy omil hisoblanadi. Xalqimizda :"Kopni korgan" degan so'zleri bor. Yoshi ulug' kadrlarimiz ishning ko'zini yaxshi biladi. Ularining ko'p yillik faoliyati davomida to'plagan pedagogik mahorati, har bir o'quvchining ichki dunyosini tushunish salohiyati, bu beba ho bilim manbai. Ular nafaqat dars o'tadilar, balki yosh kadrlar uchun ustoz, maslahatchi va hayotiy yo'lboshchi bola oladilar.

Yosh pedagoglar-bu zamon bilan hamnafas, yangilikka intiluvchan, ta'limga yangicha qaraydigan yangi avlod vakillaridir. Bugungi kunda yosh pedagoglar zamonaviy pedagogika axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar yondashuvlarni yaxshi biladilar. Ular onlayn platformalar raqamli resurslar, sun'iy intellectlardan foydalanish borasida faol hisoblanishadi. Ularning texnologik savodxonligi ta'lism jarayonini jozibador va zamonaviy qiladi. Biroq yosh kadrlar duch keladigan ba'zi muammolar ham mavjud. Jumladan: Tajribaning yetishmasligi, ba'zida o'z fikrni qat'iy bayon eta olmasligi, ko'p hollarda mativatsiyaning pasayishi shu jumlasidandir.

Shu sababli yosh kadrlar uchun ustozlar bilan bevosita ishlash, tajribali pedagoglar yordamida faoliyatini yolga qoyish juda muhimdir. Shuning uchun biz yoshlар, yoshi ulug‘ ustozlar va yosh kadrlarni, ta'limgаnning ikki qanoti, ularning har biri oziga xos qimmatli tomonlarga ega deb bilamiz. Yosh avlod va yoshi ulug‘lar bir-birini to‘ldiruvchi va boyituvchi kuchlardir. Agar bu ikki gurux vakillari o‘zaro hurmat, hamkorlik va ochiqlik ruhida ishlasa, unda nafaqat ta’lim tizimi, balki butun jamiyat yutadi. Bizningcha, eng ideal ta’lim muhiti- bu ustozlarning tajribasi bilan yoshlарimizning innovatsiyasi uyg‘unlashgan muhitdir deya hisoblaymiz.

O‘zbekiston ta’lim tizimida yosh kadrlar va tajribali mutaxassislar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minalash, tajriba almashinuvi orqali ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro hamkorliklar va innovations yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Vengriyaning “MATE” universiteti o‘rtasidagi hamkorlik doirasida, Toshkent davlat agrar universiteti talabalari va yosh olimlari uchun Vengriyada stajirovka o‘tash imkoniyatlari yaratildi. Bu orqali yoshlар xorijiy tajribani o‘rganish, ilmiy salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Yosh pedagoglarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalariga moslashtirish maqsadida, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. Bu esa yosh kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Milliy malaka tizimining joriy etilishi orqali, yoshlарimizning professional o‘sish yo‘nalishlari belgilab olinmoqda. Bu tizim ish beruvchilarning talablariga mos kadrlar tayyorlashga, yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta’lim tizimidagi uzviylik, ya’ni maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim bosqichlaridagi bog‘liqlik yosh avlod kelajagini belgilovchi muhim omil ekanligini ta’kidlaganlar. Bu uzviylik ta’lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimining bardavomligi, sifati va taraqqiyoti bevosita unda faoliyat yuritayotgan kadrlar — yoshi ulug‘ tajribali ustozlar va zamonaviy qarashlarga ega yosh mutaxassislar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liq. Har ikki avlod o‘ziga xos ustunlik va imkoniyatlarga ega: yoshi ulug‘lar — sabr-toqat, hayotiy donolik va chuqur tajriba egasi bo‘lsa, yoshlар — yangilikka ochiqlik, texnologik bilim va kuch-g‘ayrat bilan ajralib turadi. Bu ikki kuchning bирgalikdagi harakati natijasida ta’lim sifati ortadi, zamon talablariga moslashuv tezlashadi va eng muhimi — avlodlar

davomi ta'minlanadi. Yoshi ulug'larning tajribasini yoshlar e'zozlab o'rgansa, yoshlarning yondashuvini ustozlar qo'llab-quvvatlasa, bu o'zaro boyitish jarayoni nafaqat samarali, balki barakali ham bo'ladi. Shu bois ta'lim tizimida mentorlik, ustoz-shogirdlik an'anasi kuchaytirish, o'zaro hurmatga asoslangan hamkorlik muhitini yaratish zarur. Zero, ta'lim — bu faqat bilim berish emas, balki tajriba, ma'naviyat va mas'uliyatni avloddan-avlodga yetkazish jarayonidir. Ana shundagina biz kuchli, barkamol va zamonaviy pedagogik salohiyatga ega jamiyatni shakllantira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., Tadjibaeva D. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. To'xtayeva M. Zamonaviy dars va innovatsion pedagogika. — Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2022.
3. Mavlonova R., Shodmonqulova S. Oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: Ilm ziyo, 2023